



RIVOJLANISH MARKAZLARIDA BOLALAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH ORQALI MA'NAVIY-AXLOQIY SIFATLARNI TARBIYALASH USULLARI

Jo'rayeva Z.S.

Namangan davlat universiteti Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida stajyor-o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: markaz, guruh, tarbiyalanuvchi, tarbiyachi, til va nutq, qurish-yasash va konstruksiyalash va matematika, san'at, suyjetli-rolli o'yinlar va drammalashtirish, ilm-fan va tabiat markazlari.

Ключевые слова: центр, группа, обучающийся, воспитатель, язык и речь, строительство и математика, искусство, сюжетно-ролевые игры и инсценировки, научно-природные центры.

Key words: center, group, student, teacher, language and speech, construction and mathematics, art, role-playing games and dramatizations, science and nature centers.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofda dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo'shilish imkoniyatini berish ekanligi haqida so'z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье основным условием организации центров развития в обучении детей дошкольного возраста является предоставление ребенку возможности выбора деятельности в центрах развития, в которой он сможет самостоятельно приобретать знания об окружающем мире, развивать навыки и умения. способности, заинтересовать ребенка, самостоятельное исследование, а не получение готовых знаний от педагога, говорят, что это возможность включиться в исследовательский процесс.

SUMMARY:

In this article, the main condition for organizing development centers in teaching preschool children is to provide the child with the opportunity to choose activities in development centers in which he can independently acquire knowledge about the world around him, develop skills and abilities, interest the child, independent research, and not receive ready-made knowledge from the teacher, they say that this is an opportunity to join the research process.

Ta'lim va tarbiyani bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlariga



ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib berish bugungi kun talabidir.

“Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi” asosida 3-6 (7) yoshli bolalarni ma'naviy tarbiyalash, ularda shaxsiy fazilatlar, jumladan, o'z tuyg'ularini boshqarish, ijtimoiy motivlarni uyg'otish, milliy an'analarga qiziqishni paydo qilish, yaqin kishilarga g'amxo'rlik qilish kabi ehtiyojlarni shakllantirishga qaratilgan “Baxtli bola ma'naviyati” kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish mazmuni aks etadi[1].

Rivojlanish markazlari ta'lim, rivojlantiruvchi, o'qitish, rag'batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarni bajarishi kerak. Eng muhimi, ular mustaqillikni rivojlantirish ustida ishlashlari kerak, bolalar va kattalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shaxsga yo'naltirilgan ta'limga asoslangan bolaning tashabbusini rag'batlantirishi lozim. Guruh xonasidan moslashuvchan va o'zgaruvchan tarzda foydalanish talab etiladi.

Rivojlanish markazlaridagi tematik, didaktik materiallar bolaning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi darkor. Markazlarning dizayni estetik, bolalar uchun jozibali bo'lishi kerak, va mustaqil faoliyatga bo'lgan istakni keltirib chiqarishi kerak. Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda o'yin faoliyatining yetakchi rolini hisobga olish kerak. Rivojlanish markazlaridagi jihozlar xavfsiz va didaktik materiallar bolaga tegishli bo'lishi va bolalarning yoshiga mos bo'lishi zarur. Rivojlanish markazlaridagi didaktik materiallar tematik vazifalarni hisobga olgan holda o'zgarishi lozim. Ilk qadam davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida beshta rivojlanish markazlari faoliyat yuritadi. Rivojlanish markazlari bolalarga o'zlarining shaxsiy ko'nikmalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini mustaqil individuallashtirish imkoniyatini beradi. Tarbiyachi-pedagoglar rivojlanish markazlarida bolalarning yordamchilari rolini o'ynaydilar, mashg'ulotlar olib boriladigan joyda imkoniyatlar kengligini ta'min etadilar va har bir bola individual rivojlanishi darajasini egallay olgan holda faoliyat turlarini rejalashtiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va “Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim” vazirligining maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risidagi qarorlariga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida beshta markaz tashkil etilgan. Bolalar hafta mobaynida oladigan bilim va ko'nikmalarini har tomonlama mukammal va mustaqil egallay olishlari mumkin. Har bir yosh guruh xonasida:

- “Til va nutq” markazi;

- “Qurish-yasash va konstruksiyalash va matematika” markazi;
- “San’at” markazi;
- “Syujetli-rolli o‘yinlar va drammalashtirish” markazi;
- “Ilm-fan va tabiat” markazi tashkil etilgan bo‘lishi lozim[2].

Ushbu markazlar tarbiyalanuvchilar uchun muhim o‘rin kasb etadi, chunki bola markazda erkin faoliyat olib boradi. Bu esa bolalarning nutqini, erkin fikrlashini, jismoniy va ijtimoiy bilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Markazlarda bolalar bilan o‘yin orqali ishlash ularni zeriktirmaydi va qiziqishini yanada kuchaytiradi. Masalan: “San’at markazi bolajonlarning eng sevimli markazi hisoblanib, unda rasmlar chizib, raskraskalar bo‘yashadi, aplikatsiya ishini, plastelindan o‘zlari xohlagan narsalarni yasab, ijodiy faoliyat olib borishadi. Markazda “Non” haqidagi mashg‘ulotimiz uchun kerakli jihozlarni tayyorlash va non rasmini chizish kerak bo‘lsa, tarbiyachi faqatgina: “Bolajonlar barchamiz non rasmini chizamiz va qani kim o‘z rasmida qanday nonni aks ettiradi?”- deydi. Bolalar esa: kimdir chiroyli nonni, kimdir sedanali nonni, yana kimdir uyda onasi yopgan nonni rasmini chizishga harakat qiladi. Bu orqali bolada erkin fikrlash va tasavvur doirasini kengaytirish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko‘ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko‘nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo‘shilish imkoniyatini berishdir. Quyida bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi markazlarning xususiyatlarini alohida tahlil qilib o‘tamiz.

Jumladan, “Til va nutq” markazi. Ushbu markazda bolalarning do‘stlari orasida o‘z fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish, bolalarcha suhbatlar tashkil etish imkoniyati mavjud. Boladagi ko‘pchilik orasida tortinchoqlik odatlari kichik guruhlarda ishlash jarayonida yo‘qola boshlaydi. AKT vositalari, turli xildagi mavzuli rasmlar orqali bola mustaqil ravishda o‘ylashi, fikrlashi, mazmunni idrok etish imkoniga ega. Markazga qo‘yilgan mazmunli rasmlar orqali majburiy emas, balki o‘z holicha hikoyalar tuzish imkoniga ega. Mavzularni tanlash huquqiga ega.

“Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika” markazi. Markaz orqali bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi. Bola bir vazifani bajarish orqali ham qurish yasash, ham matematika bilan shug‘ullanish imkoniga ega. Bolalar orasidagi suhbatlar tinglansa, ularning muloqotida “Menga katta g‘ishtni ber”, “Menga qizil kerak”, “O‘ng tomoningdagi meniki”, “Men yasagan uycha ikki



qavatli”, “Seniki kichkina, meniki esa katta”, “Men yasagan mashinaning rangi oq”, “Mana senga ko‘k lego”, “Mening mashinamga 10 ta odam sig‘adi”, “Nima uchun buzilib ketdi?, chunki sen tagiga ko‘p g‘isht qo‘ymading, tagi kichkina bo‘lib qoldi” va boshqa jumalarni eshitasiz. Demak bolalar muloqotida ayirish, qo‘shish, kattalikni bilish, taqqoslash kabi matematik iboralar ishlatiladi va ilk matematik tasavvurlar kengayib boradi. O‘z ishlarini taxlil qilishni o‘rganadi.

“San‘at” markazi. San‘at markazida bolalarni kayfiyatini ko‘tarish imkoni mavjud. Bolaning ijodiy kobilyatlarini qo‘llab quvvatlanadi. San‘atning rassomlik, xaykaltaroshlik turlariga hamma uchun ham iqtidor berilmagan. Shuning uchun bu markazga kamroq bola qatnashi mumkin. Lekin markazga kerakli jihozlarni to‘liq qo‘yilsa, yasash, chizish texnologiyalari ertalabki, kechki soatlarda o‘rgatilsa, markaz ishi rivojlanadi. Oilada bolaga bunday sharoit har doim ham yaratib berilmaydi. Markazda ishlash orqali bolaning mayda motorikasi rivojlanadi. Mayda motorikaning rivojlanishi esa, bolaning nutqini rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

“Syujetli-rolli o‘yinlar va drammalashtirish” markazi. Markazni bolalar iqtidorini namoyon bo‘lishiga, o‘z mahoratini ko‘rsatishi uchun juda qulay muhit. Bu markazni bolaning “Men”ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo‘lib, o‘yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o‘rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega. O‘yinlarda oila a‘zolarining o‘zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o‘rganish) imkoni mavjud.

“Ilm-fan va tabiat” markazi. Tajriba-sinov maydonchasida o‘tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg‘otadi va yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi xodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat va bu markazni to‘g‘ri ishlatilsa bolalar tabiat haqidagi 90% bilimni shu yerda olishi mumkin. Markaz nafaqat bolalarda balki pedagoglarda ham qiziqish uyg‘otadi. Markazda olib borilayotgan turli tajribalar orqali bolalar jismlarning foydali va zararli tomonlarini bilib olish imkoniga ega bo‘ladilar. Hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayerdan kelganligi, ularni nimadan olinganligi haqidagi bilimlarni olish orqali ularga bo‘lgan munosabatlari ijobiy tomonga o‘zgaradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, bola misoli nihol uni qay yo‘sinda rivojlantirish ota-ona va pedagog tarbiyachiga bog‘liq. Bugungi kunda yaratib berilayotgan shart-sharoitlardan oqilona foydalanib bolaga beriladigan ko‘nikmalarni rivojlanish sohasi kompetensiyalari asosida mashg‘ulotlarning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini hisobga olgan holatda



rivojlanish markazlarida tashkilotish maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining maktab ta'limiga tayyorgarlik ko'rishida va komil shaxs sifatida shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, Uzluksiz ma'naviy tarbiya KONSEPSIYASI 31.12.2019-yildagi 1059-son
2. Ilk qadam davlat o'quv dasturi. -T.: 2022 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. Toshkent-2018 yil
4. Adizov B.R. Oliy va malaka oshirish ta'lim tizimlarini integratsiyalashning nazariy asoslari // Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. Buxoro. 2019. 26-27 aprel. – B.5-8.
5. Azizova Z.F. Qo'g'irchoq teatri vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish: Ped. fan.b. fals. dok. (PhD) ...diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 48 b.
6. Abdusamatova N.J. Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari: Ped. fan.b. fals. dok. (PhD) ...diss. avtoref. – Namangan, 2021. – 12 b.